

FILOLOGIK FANLARNI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIM VA O'QUV TOPSHIRIQLARINI LINGVODIDAKTIK, METODIK VAZIFALARI

Axmedova Maloxat Ergashevna "Pedagogika" kafedrası mudiri, pedagogika fanlari doktori

Toshkent amaliy fanlar universiteti, Gavhar ko'chasi 1 uy, Toshkent 100149, O'zbekiston

malohatahmedova091@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10462548>

- Kalit so'zlar: Ona tili, ta'lim, mustaqil ta'lim, o'quv topshiriqlari, takomillashtirish zarurati, lingvodidaktik talablar, mustaqil va o'quv topshirig'i, zamon talabi, samara, nutqiy ko'nikma, rivojlantirish, talaba, topshiriq, metodik yondashish.
- Annotasiya: Filologik ta'limda talabalarning mustaqil oquv topshiriqlarini rivojlantirishda kredit-modul tizimiga o'tishning amaldagi holati va istiqbollari, oliy ta'lim muassasalarini ilg'or jahon tajribalari asosida tizimining tamoyillari, ta'lim oluvchi, ta'lim natijalarini tan olinishi. Ta'lim traektoriyasini mustaqil shakllantirish imkoniyatini yaratilishi va akademik mobillik, baholarning to'planib borilishi, Professor-o'qituvchi, talabalarning fanga qiziqishi, hamda aniq belgilangan baholash tizimini joriy etilishi maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berilgan.

KIRISH

Xalqaro tajribalar asosida til o'rganishga qo'yilgan aniq talablar orqali (tinglab tushunish), (gapirish), (o'qish) va (yozish) malakalari shakllantiriladi. Ona til o'qitishda mazkur yondashuvdan biroz ijodiyroq foydalanish maqsadga muvofiq, bizningcha. Chunki talabalar tilning tashuvchilari sifatida muayyan nutqiy ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan holda maktabga keladilar. Talabalarda ona tilidan (ular tining tashuvchilari bo'lgani uchun) ba'zi ko'nikmalar rivojlantiriladi, asosan, ulardagi mavjud ko'nikmalar takomillashtiriladi. Ayniqsa, ona tilidan talabalar matn yoki suhbatni tinglab tushunadi, o'qiy oladi, gapira oladi va yoza oladi. Bunday vaziyatda ona tili o'qitish metodikasining asosiy vazifasi talabalarda eshitganlarini *to'g'ri tushuna olish, adabiy tilda ravon va mantiqan izchil gapira olish, matnni o'qib tushuna olish* hamda *to'g'ri va mazmunli yoza olish* ko'nikmalarini rivojlantirish lozim. Oliy ta'limning filologik yo'nalishlarida, ona tili fanini o'qitishda modul-kredit tizimining joriy etilishi, mustaqil ta'lim topshiriqlariga e'tibor kuchayishini ko'rsatadi. Davlat ta'lim standartlari va milliy baholash mezonlariga muvofiq tarzda ona tili fanlarini o'qitishda mustaqil ta'lim topshiriqlari, savol, mashq va topshiriqlar mazmunini tanqidiy o'rganish, ularni nutqiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish va baholash nuqtai nazaridan tavsiflash va tasniflash zarurati mavjud. Oliy ta'lim tizimida an'anaviy dars mashg'ulotlarida talabalar, xususan, bo'lajak mutaxassislariga bilim berish, o'quv va mustaqil topshiriqlar orqali ma'lumotlarni yodlash, turli manbalardan olingan jummalarni lingvistik tahlil qilishga mo'ljallangan. Bu esa bugungi zamon talablariga mos kelmay qolmoqda. Hayot insoniyat

oldiga turli muammolarni qo'yadi, har bir kishi uni mustaqil hal qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Shu ma'noda pedagogikada muammoli ta'lim texnologiyasi joriy qilindi. Muammoga asoslangan ta'limda faqat, mustaqil ta'lim topshiriqlaridan asosan, savol va topshiriqlarning muhim o'rni bor. Muammoli o'qitishning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi bilimlarni tayyor shaklda yetkazmaydi, balki o'qituvchi tomonidan savol yoki topshiriq shaklida muammoli vazifalar qo'yiladi, mashg'ulotni tashkil etuvchi ularni hal qilish yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Bu ham, albatta, savol va topshiriqlar orqali amalga oshiriladi. Mashqlar esa uni o'zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida aqliy yoki amaliy harakatni takror-takror bajarish demakdir. Bu jarayonda o'z o'rni bilan mashqlar ham ishtirok etadi.

Takomillashtirilgan mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlari muammoli o'qitishning quyidagi asosiy psixologik-pedagogik maqsadlariga muvofiq kelishi kerak: talabalarning fikrlash va qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga; talabalarning faol izlanish va mustaqil masalalar yechish jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishlari, natijada bu bilim va ko'nikmalar an'anaviy mashg'ulotlarga qaraganda mustahkam bo'lishiga; nostandart muammolarni ko'ra oladigan, o'rnatilgan va hal qila oladigan talabaning faol ijodiy shaxsini tarbiyalashga mos bo'lishi lozim. Ona tili ta'limda faol qo'llanila boshlagan matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyasi muhim ahamiyatga ega. Har qanday matn tahlilini mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlari orqali muammoli jarayonga aylantirish mumkin. Bunda savol yoki topshiriqni to'g'ri qo'yish kifoya qiladi. O'qituvchining boshqaruv faoliyati

bilimlarni idrok qilishni tashkil etish bilan chegaralanadi. O'qituvchilarning o'z talabalarini bilim olishga, fikrlashga undash quroli, ularning faoliyatini, o'zlashtirilishini monitoring qilishda o'lchov bu – mustaqil va o'quv topshiriqlaridir. An'anaviy ona tili ta'limida ham o'qitishning reproduktiv metodidan foydalaniladi. U quyidagi xususiyatlarga ega: bilim talabalarga "tayyor" shaklda taklif etiladi; o'qituvchi bilimlarni muloqot qilibgina qolmay, balki uni bayon etadi; talabalar bilimlarni ongli o'zlashtiradilar, uni tushunadilar va eslab qoladilar.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida ona tilini o'qitish, uni avaylab-asrash, milliy qadriyat sifatida ulug'lashga doir ilmiy izlanishlar uzluksiz ravishda olib boriladi. Jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Mugla Universiteti (Turkiya), Indiana University (AQSh), Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters, Oxfords university (Buyuk Britaniya), Belfield pedagogical university Germany (Germaniya). Kasbiy tayyorgarlikka bo'lgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish muammolari, ona tili matni ustida ishlash orqali o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari tizimli ishlab chiqilgan. (Ulyanovskiy gosudarstvennyy universitet); nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish bilan bog'liq muammolar yuzasidan kuzatishlar olib borilgan (Bright Hub Education); til o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvlar olib borilayotgan (Payomi Donishgohi Milliy Tochikiston), (Janubiy Qozog'iston pedagogika universiteti oliy ta'lim muassasalarida nutqiy kompetensiyalari rivojlanatish ustuvor vazifa sifatida qo'yilgan. Jahon ta'lim tizimida interaktiv o'qitish tizimidan foydalanish (interactive E-learn) bo'yicha tadqiqotlar yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarda amalga oshirilmoqda. Jumladan, Purdue University (AQSh), interaktiv ta'limni amalga oshirish BMTning International Institute for Sustainable Development (IISD), ona tilini o'qitish muammolari (Baku: Azərbaycan Dövlət Pedagoji Universiteti) mavzularida ilmiy izlanishlar olib borilgan. [3.17].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mamlakatimizda keyingi yillarda bir qator ona tili o'qitish metodikasiga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, N.Dadajonova [15.38]. kabi tilshunos o'z tadqiqotlarida o'zbek tili ta'limi jarayonida talabalarining nutqi ustida ishlash metodikasi asosida o'qitishni targ'ib qilgan. A.G'ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavuddinova, V.Karimjonova kabi tilshunos olimlar esa ona tili o'qitish asosida mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlash, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ustida

izlanishlar olib borgan. T.Yusupova gapning bosh bo'laklarini o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Ona tili ta'lim mazmunida metodik va nazariy ta'limi bo'yicha tadqiqotchi olimlar H.Ne'matov, A.G'ulomov, M.Qodirov [17.78]., A.Nurmonov, A.Sobirov, B.Mengliyev, L.R.Raupova, B.To'xliyev, Yusupova Sh, Ziyodova T, Oxunjonova O, D.Jumashev kabi tilshunos olimlarning ishlari shular jumlasidandir. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlarning yozma va og'zaki nutqini rivojlantirishga yo'naltirilgan. O.Roziqov, N.Mahmudov, R.Safarov, U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullaev, H.Alavuddinova, R.R.Sayfullaeva, B.R.Mengliyev, L.L.Raupova kabi tilshunos olimlar ham shular jumlasidandir. [6.44].Tadqiqotchi A.Bobomurodov ona tili ta'lim mazmunida o'yin-mustaqil ta'lim topshiriqlardan foydalanish, metodist T.Ziyadov ona tili ta'limi jarayonida talabalarining so'z boyligini oshirish imkoniyatlarini tadqiq etgan va ona tili ta'lim mazmunida matn tahliliga murojat qilgan. Jumladan, K.Turdiyeva, G.Axmedovalarning o'zbek tili darsligi (tibbiyot institutlarining rus guruhlar uchun)da, o'zbek tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi mustaqil ta'lim topshiriqlari va ulardan foydalanishga oid ishlangan metodik yondashuvlari OTM uchun muhim ahamiyatga ega. Metodikaga doir T.T.G'aniev ona tilidan mashq bajarish jarayonida talabaning bilish faolligini oshirish masalalarini tadqiq qilgan. A.Hamraev ona tili ta'lim mazmunida ta'lim oluvchining ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosini tadqiq qilish asosida, ijodiy faoliyatni loyihalashtirishda ona tili ta'limida uzviylik, uzluksizlik, onglilik, o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikni ta'minlash tamoyillari asosida o'quvchilarning intellektual salohiyatini tizimli tarzda rivojlantirish ilmiy-metodik jihatdan asoslangan. Oliy ta'lim dars mashg'ulotlarida mustaqil topshiriqlarining qo'llanilishini muntazam deb bo'lmaydi, keyingi yillarda yaratilgan darslik va qo'llanmalar mustaqil topshiriqlari asosida yaratila boshladi. Masalan, H.Jamolxonov tomonidan nashr qilingan.

"Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida mavzular so'ngida savol va topshiriqlar keltirilgan. [18.78]. 2000 yilga qadar yaratilgan oliy filologik ta'lim uchun yaratilgan o'quv adabiyotlarda mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlari deyarli uchramaydi. Masalan, U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlarning 1992 yil chop etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida umuman mustaqil va o'quv topshiriqlari berilmagan [19.88]. Bunda mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini bajarishda talabalarining mustaqillik darajasiga e'tibor beriladi: bilimni, ma'lumotni ko'paytirish uchun

maxsus topshiriqlar ham beriladi; bilimlarni turli nutq vaziyatlarida qo'llashga o'rgatuvchi mashq va topshiriqlar ham baravar qo'llaniladi. Ona tili ta'limida mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini takomillashtirish zarurati mavjud bo'lib, unda quyidagi lingvodidaktik talablar bajarilsa, mustaqil va o'quv topshirig'i zamon talabiga mos va samarali bo'ladi: bir mustaqil va o'quv topshirig'ini bajarish asnosida bir nechta nutqiy ko'nikmani rivojlantirish olish imkoniyatiga ega bo'lishi; talabalarning mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarni amalga oshirishga ongli yondashishi, bajarishda didaktik ketma-ketlikka rioya qilishi; mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini zamonaviy axborot manbalaridan topish uchun sun'iy intellekt bilan to'g'ri muloqot qila olishi; o'quv lug'atlaridan mavzu doirasida unumli foydalana olishi.

Takomillashtirilgan mustaqil ta'lim o'quv topshiriqlari muammoli o'qitishning quyidagi asosiy psixologik-pedagogik maqsadlariga muvofiq kelishi kerak:

- talabalarning fikrlash va qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishga;

- talabalarning faol izlanish va mustaqil matn tahlil etish jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishlari, natijada bu bilim va ko'nikmalar an'anaviy mashg'ulotlarga qaraganda mustahkam bo'lishiga;

- nostandart muammolarni ko'ra oladigan, o'rnatilgan va hal qila oladigan talabaning faol ijodiy shaxsini tarbiyalashga mos bo'lishi lozim.

Ne'matov H. ning quyidagi fikrlari hozir ham ona tili ta'limi va unda topshiriqlar berish uchun birdek ahamiyatli: "Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezonini uning foydalilik va amalda qo'llanila olish darajasidir. Biz ona tili ta'limidan foydali bilimlar deb savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlaydigan bilimlarni tushunamiz"

B.To'xliiev, M. Shamsieva, T.Ziyodova tomonidan "O'zbek tili o'qitish metodikasi" darsligida "Mustaqil ta'lim o'quv topshiriqlari o'zlashtirishning zarur kuchi bilimlarni takrorlash asosida ta'minlanishini" ta'kidlaydi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan (Boshlang'ich ta'lim sport tarbiyaviy ish (5141600), filologiya (5220100), pedagogika institutlarining ona tili va adabiyoti (5141300) bakalavriyat ta'lim O.Roziqov, M.Mahmudov, B.Adizov, A.Hamraevlar tomonidan nashr etilgan "Ona tili didaktikasi" darsligi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Darslikdagi mashqlarga e'tibor qilamiz.

"Mashq qilish usullari tarixiy-tadrijiy taraqqiyoti natijasida o'zbekona fikrlash, o'zbekona ta'lim, odat, an'analar tarkibida shakllangan. Shu tufayli ulami nutq madaniyatini o'zlashtirish bilan aloqador hodisa deb qaraymiz. Lingvistik mashq qilish usullarini qo'llab, aqliy-amaliy yumushlarni bajarishda tahlil, birlashtirish, taqqoslash, abstraksiyalash, konkretlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari ham ishtirok etadi".

Masalan, keyingi darslikka murojat etsak.

Berilgan so'zlarni ma'nolari yoki tuzilishi jihatdan guruhlariga ajratish jarayonini tahlil etaylik. Bu usulni qo'llash paytida, guruhlariga ajratish jarayonida tahlil va sintez, taqqoslash va konkretlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari ham ishtirok etadi. Binobarin, lingvistik mashq qilish usullari nutq madaniyatini o'rganish yo'llari va aqliy faoliyat ko'rsatish amallari hosilasi sifatida shakllangan.

Shu ma'noda savol va topshiriqlarni ham yodlash, takroran aytib berishga ixtisoslashib qolishidir. Ko'rinib turibdiki ona tili ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim topshiriqlari orqali muammoli ta'limga yo'l ochib berildi. Muammoli ta'lim texnologiyasi esa ijrochilikdan ijodiy faoliyatga o'tishni ta'minlaydi. Bugun Yangi O'zbekistonga ijrochi emas, ijodiy tafakkur sohiblari kerak. Muammoli ta'limning ma'lum bir bosqichida talabalar hali muammolarni o'zlar hal qila olmaydilar va shuning uchun o'qituvchi muammoni tadqiq qilish, uning yechimini boshidan oxirigacha belgilash yo'lini ko'rsatadi. Bu usuldagi talabalar esa ishtirokchilar emas, balki kuzatuvchi bo'lsa-da, bilib olish qiyinchiliklarini hal qilishni o'rganadilar. [7.24].

Ona tili ta'limida qisman izlanuvchanlik ta'lim metodidan ham foydalaniladi, uning mohiyati quyidagi xususiyatlarda ifodalanadi:

- bilim talabalarga "tayyor" shaklda taklif etilmaydi, ularni mustaqil ravishda chiqarish kerak;

- o'qituvchi bilimlarni xabar yoki taqdim etishni tashkil etmaydi, balki turli vositalar asosida yangi bilimlarni izlanadi;

- o'qituvchi rahbarligida talabalar mustaqil mulohaza yuritadilar, paydo bo'lgan bilish muammolarini hal qiladilar, muammoli vaziyatlarni yaratadilar hal qiladilar, tahlil qiladilar, xulosa chiqaradilar va natijada ongli mustahkam bilim hosil qiladilar.

NATIJALAR

Mustaqil ta'lim topshiriqlari oliy ta'lim darslik va qo'llanmalarining ham asosiy qismini tashkil etishi kerak. Oliy ta'limda mustaqil ta'lim topshiriqlarini tuzish va ulardan foydalanish bo'yicha alohida fanlar tashkil etilishi lozim. Mavjud o'quv

predmetlarning mavzu va yo'nalishidan kelib chiqib, oliy ta'limdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini mazmun jihatidan 3 ga ajaratish mumkin:

1. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fani bo'yicha tuziladigan mustaqil ta'lim o'quv topshiriqlari.
2. "O'zbek tili" fani bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlari.
3. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" fani bo'yicha tuziladigan mustaqil ta'lim topshiriqlar.

Bu o'rinda filologiya va o'zbek tillarni o'qitish yo'nalishlarida o'qitiladigan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" va boshqa mutaxassislik fanlari mazmuni tilshunoslik ilmi asoslarini o'rgatish nazarda tutiladi. Shu ma'noda bu borada tuziladigan mustaqil ta'lim topshiriqlari talabalarni fikrlashga undaydigan, bir fikrni ikkinchi bir fikr bilan taqqoslash va yakuniy xulosani ayta oladigan nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Mavjud darsliklardagi mustaqil ta'lim o'quv topshiriqlari ma'lumotlarni yodlab, keyin yana qayta aytib berishga mo'ljallangan:

Natijada, A.Jamolxonovning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida quyidagi mustaqil ta'lim topshiriqlari berilmagan, savollardan foydalanilgan:

- 1.Leksikologiya nimani o'rganadi?
- 2.Leksika nima?
- 3.Leksikologiyaning maqsadi va vazifalari haqida ma'lumot bering.
- 4.Leksikologiyaning qanday turlari bor?

Leksikologiya tilshunoslikning qaysi bo'limlari bilan aloqada bo'ladi? Sabablari? [18.57].

Yuqoridagi mustaqil ta'lim topshiriqlari asosida talabani ijodiy ishlashga o'rgatadigan zamonaviy darslik. Professor R.R.Sayfullaeva, B.R.Mengliyev., L.L.Raupova hammuallifligida yaratilgan "Hozirgi o'zbek tili" darsligida o'qitishning izlanuvchanlik va asosan, tadqiqot metodlariga tayanilgan, uning mohiyati quyidagicha

Savol va topshiriqlar

1. Morfemika bo'limi haqida ma'lumot bering.
2. Morfemani tavsiflang.
3. Morfemik strukturadagi o'zgarishlarning qanday turlarini bilasiz?.
4. Morfemani struktur tasnifi deganda nima nazarda tutiladi?.
5. Yasalayotgan so'zlar haqida mulohaza bildiring[20.134].

Bu holatda talaba ijodiy fikrlashga undalgan, mustaqil ta'lim topshiriqlarining izohiga e'tibor qaratganimizda asosan ona tili ta'lim mazmuniga, maqsadiga hamda lingvodidaktik uslubiga qaratilgan.

Natijada Oliy ta'limdan tashqari umumiy o'rta ta'lim tizimi uchun yaratilgan darsliklar, tilshunos professor olimlar Qodirov M., Ne'matov H.,

Mengliyev B. va boshqa Ona tili 8-sinflar uchun darsligida o'qitishning qisman izlanuvchanlik va asosan, tadqiqot (izlanuvchanlik) metodlariga tayanilgan, uning mohiyati quyidagicha masalan, "Uyga vazifa" ruknida mashqning sharti talabani mustaqil shug'ullanishga undaganligini ko'rish mumkin.

Izlanuvchanlik quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

– o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda muammoni shakllantiradi, uning yechimi guruhda dars mobaynida aniqlanadi;

– bilim o'quvchilar bilan bo'lishilmaydi. O'quvchilar muammoni o'rganish jarayonida uni mustaqil oladilar, olingan javoblarning turli shakllarini taqqoslaydilar. Natijalarga erishish uchun vositalar ham talabalar tomonidan belgilanadi;

– o'qituvchining faoliyati muammoni hal qilish jarayonini tezkor boshqarish;

– ta'lim jarayoni yuqori intensivligi bilan ajralib turadi, o'qitishga qiziqish ortadi va olingan bilimlar chuqur farqlanadi.

Mustaqil ta'lim o'quv topshiriqlari umumiy ta'limdan tortib, oliy ta'lim darsliklarigacha bo'lgan asosiy qismini tashkil qilgan ekan, berilayotgan mustaqil topshiriq ijodiy izlanuvchanlikka va mantiqiy fikrlashga undaydi.

Darslik masalasiga ham qisman to'xtalish lozim. Ta'lim mazmuni o'quv adabiyotlarida (darsliklar, ma'lumotnomalar, qo'shimcha o'qish uchun kitoblar, atlaslar, xaritalar, topshiriq va mashqlar to'plamlari, bosma asosida daftarlar va boshqalar) batafsil bayon etilgan.

O'quv adabiyotlarining asosiy turi darslik – bo'lajak mutaxassislar uchun muhim bilim manbai, o'rganishning asosiy vositalaridan biridir.

Darslik bilan ishlash-materialni og'zaki bayon qilish metodining asosiy turi.

Demak darslikda didaktik va metodik yondashuvlar, talabaning intellektual rivojlanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma, salohiyati insonning psixologik (individual tipologik xususiyatlar) va psixolingvodidaktik (o'yin, o'qish, mehnat) faoliyati tajribasi doirasida aks etadi.

Zamonaviy oliy ta'lim darsliklari barqaror va mobil bo'lishi kerak. Barqarorlik talabalariga muvofiq ravishda darslik mustahkam asosga ega bo'lishi kerak. Mobillik asosiy dizaynni buzmasdan yangi bilim, ko'nikmalarni tezda joriy etish imkoniyatini beradi. Darslikning tarkibiga matn (turli nutq uslubiga doir matnlar-tavsiflar, matnlar-qissa va matnlar-dallillar) asosiy tarkibiy qism va matndan tashqari yordamchi komponentlar (tashkil etish va o'zlashtirish tuzilmasi) kiradi. Bu o'rinda o'zlashtirish tuzilmasi sifatida o'quv topshiriqlari

katta vazifa bajaradi.

Darslik o'quv jarayonida talabalarning ongli va faol ishtirokini, o'quv materialining to'liq asosini ta'minlashi lozim. Zamonaviy darslik quyidagi didaktik vazifalarni bajaradi:

- talabalarni mavzularni o'rganishga da'vat etadi, ishtiyoq uyg'otadi;

- talabaga axborot, ma'lumotlarni taqdim etishning, qidirib topishning mavjud usullari asosida bilimlarni kengaytirish imkonini beradi;

- dars mashg'ulotining borishi va natijalarini tekshirish, o'z-o'zini baholash va korreksiyalash, shuningdek, zarur ko'nikmalarni hosil qilish uchun mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish imkoniyatini o'z ichiga oladi.

Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, malaka hosil qiluvchi, takrorga asoslangan mashqlar, sinash uchun qo'llanuvchi topshiriqlar, fikrlashga o'rgatuvchi savollar o'zbek tili fan sifatida shakllangan dastlabki yillarda (1930–1940) chop etilgan darsliklarda ham bugun amalda bo'lgan darsliklarda ham uchramaydi. Umumiy mashq atamasi ostida oddiy topshiriq tavsifidagi tavsiyalar o'rin olgan. Oliy ta'lim tizimida ham mustaqil mashq va topshiriq o'zaro farqlanmaydi. Talabalar o'z nutqiy muammolari ustida mashq qilmaydi. Mustaqil ta'lim topshiriqlari an'anaviy shaklda yodlab aytib berishga ixtisoslashgan. Savollar fikrlashga undamaydi.

O.Roziqov, M.Maxmudov, B.Adizov, A.Hamrayev muallifligidagi "Ona tili didaktikasi" darsligi orfografik mashqlar tilning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik hodisalariga bog'liq holda tashkil etishini qayd etadi. Bunday mashqlar vositasida ham fonetika yoki morfologiyadan o'zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanib, orfografik malaka hosil qilinadi.

6-topshiriq. So'zlami bo'g'inlarga ajratib, chiziqlar bilan yozing. Murabbo, murabbiya, minnatdor, tashabbuskor, ziddiyat, farzand, zabardast, bahram and, tonggi, tingla, alanga, ingichka, ingramoq, mingoyoq, daryo.

Bu topshiriq asosida mashq qilinganda fonetikadan o'rganilgan bilimlar mustahkamlanib, orfografik malakalar yanada rivojlantiriladi. Shu tufayli, uni fonetik-orfografik mashq shaklida qaraymiz.

Shu o'rinda G'.Hamroevning "mashq", "topshiriq" va "savol" atamalarini mohiyatan farqlash, ularning lingvodidaktikadagi o'rni hamda ahamiyati haqidagi mulohazalariga e'tibor berish lozim. Metodist-olim dastlab, M.Saidovning o'quv materiallari sirasida o'quv topshiriqlarini uch turga bo'lib, ularni o'zaro farqlaydi va, ko'pincha, o'qituvchilar o'z ish faoliyatlari davomida mustaqil "mashq", "topshiriq" va "masala" tushunchalarini

qorishtirib yuborishlarini, pedagogika fanlari doktori Asqar G'ulomovning "mashq ham o'quv topshiriq"ining bir shakli, ham o'qitishning muayyan bir usuli," degan fikriga qo'shilishi va topshiriq mashqning bir bo'lagi, u asosan, mashqning shartida o'z ifodasini topishini, topshiriq mashqqa qaraganda torroq tushunchani ifodalashini e'tirof etgan holda bu borada o'z yondashuvini bayon qiladi, ya'ni o'ziga qadar mustaqil ta'lim o'quv topshiriqlari bo'yicha olib borilgan ilmiy tahlillarda kelingan ilmiy xulosalardan farqli o'laroq, mustaqil ta'lim topshiriq'i mashq tarkibiga emas, aksincha, mashqlar topshiriq tarkibiga kiritilishi, vazifa jihatidan savol va mashqqa qaraganda kattaroq, kengroq tushuncha ekanligi asoslaydi.

Fonetik mashqlar. Nutq tovushlari, unli va undosh, jarangli va jarangsiz undoshlar, bo'g'in, bo'g'in turlari (ochiq va yopiq bo'g'inlar), urg'u mavzulariga oid mashqlar sirasiga kiradi. Misol keltiramiz.

1-topshiriq. *Nuqtalar o'rniga mos tovushlarni qo'yib, sozlarni o'qing. Darax..., sus..., g'ish..., qan..., kish..., pish..., balan..., do's..., pas..., monan..., pisand..., mush..., Leksik mashqlar. So'z ma'nolari, so'zning o'z va ko'chma ma'nolari, ko'p ma'noli so'zlar, so'z va termin hamda ularning o'xshash va farqli tomonlari, antonim va sinonimlar, omonimlar, lug'at boyligi, o'zbek tili leksikasining boyish manbalari kabi nazariy bilimlarni o'rgatish, mustahkamlash maqsadida leksik mashqlardan foydalaniladi. Misol uchun antonimlar bo'yicha mashq qilishga mo'ljallab tuzilgan topshiriqni keltiraiz.*

MUHOKAMA

OTM talabalari uchun 2012-yilda nashr etilgan A.G'ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Allavutdinova, V.Karimjonovlar tomonidan yozilgan "Ona tili o'qitish metodikasi" darsligini tahlilga tortganimizda, darsliklar tarkibidagi mustaqil ta'lim topshiriqlari, asosan, grammatik tahlil, grammatik qonuniyatlarni o'rgatishga, mustahkamlashga, morfologik tahlil yuzasidan sof nazariy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Nutqiy malakalarni rivojlantirishda quyida shunday topshiriq va mashqlardan namunalar keltirilgan. Lekin savollar tuzish metodikasi mustaqil berilmagan. [21.287].

"Bu so'z bizniki" o'yinini o'tkazishda o'qituvchi ko'chma doska yoki kodoskop orqali ot so'z turkumiga oid bir qancha so'zlarni o'quvchilarga tavsiya etadi. Shu so'zlardan mavhum otlarni alohida yozish va ma'nosini sharhlashga ma'lum vaqt ajratiladi. Berilgan so'zlar: kitob, baxt, taxt, ozodlik, tinchlik, tuyg'u, sumalak, shodlik, chashma, bug'doy, tegirmon, muhabbat, rasm, hurriyat, mardlik,

qadriyat, sadoqat. Qaysi guruh otlami tez va to'g'ri topsa, o'yinning g'olibi hisoblanadi [21.23]. deb, talabalarni rag'batlantirishga harakat qilingan.

M.Mirqosimova, Sh.Alimova, O.Zoitova, N.Umarova tomonidan 2004 yilda rus guruhlari uchun "O'zbek tili" o'quv qo'llanmasini tahlilga tortganimizda topshiriq bilan savollar bir xil vazifani bajarishi ma'lum bo'ldi. Oliy ta'limda, odatda, muayyan o'quv predmetiga tegishli darsliklar, dars mashg'uloti jarayonida ham, hatto dars mashg'ulotidan so'ng ham talaba va o'qituvchining shu o'quv predmeti bo'yicha bilim berish hamda ma'lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Oliy ta'lim tizimida "Hozirgi o'zbek adabiy tili" "O'zbek tili" fanlarini o'qitishda "Orfografiya" va "Orfoepiya" bo'limlari nutqiy malaka bilan bevosita aloqador bo'lganligi bois ularni o'qitish vositalari ham bir-biriga chambarchas bog'liq. G'.Hamroev to'g'ri ta'kidlaganidek, *mashq* va *topshiriq* atamalariga o'zgacha yondashish zarur. Darslik va qo'llanmalarda ko'p uchraydigan "mashq", "topshiriq" atamaları o'zaro uyadoshlik hosil qilsada, ular orasida sinonimik munosabat yo'q. Biroq kuzatishlarimiz asosida ayta olamizki, uzoq yillardan beri amalda bo'lgan qator darslik va qo'llanmalarda mazkur ikki tushunchaning berilishida chalkashlik, birining o'rnida boshqasining qo'llanilishi kabi holatlarni ko'rish mumkin: "333-mashq. Berilgan she'riy misradagi so'zlarni unli va undoshga ajrating.

Yaxshi kishi ko'rmagay yomonliq hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir".

"2-topshiriq. Gapni aniqlovchili, to'ldiruvchili, holli birikmalarga ajrating".

Keltirilgan misollardan ham ko'rinib turibdiki, darsliklarda *mashq* va *mustaqil* ta'lim topshiriqlarining berilishi, mazmuni bir-biridan farqlanmaydi. Ikkalasida ham "ajrating" topshirig'i berilmoqda.

Navbatdagi topshiriq pedagogik-metodik yo'naltiruvchi tavsifda bo'lib, talabada mustaqil ishlash asosida so'z boyligiga ega bo'lishga va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ona tili ta'limiga qo'yilgan eng muhim talablardan biri bo'lajak mutaxassislar faoliyati asosida talabalarni o'z fikrlarini mustaqil bayon qilish faoliyatiga tayyorlash ekanligi unutmazlik lozim[17.68]. .

2009-yilda nashr etilgan mazkur darslikda talabalarni baholash bo'yicha ham talabalar – bo'lajak mutaxassislarga yaxshi tavsiyalar, baholash mezonlari sifatida xizmat qiluvchi o'quv material berilgan. Mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzishda asosan quyidagi mezonlarga tayanish kerak:

Tayyorlov sinflarning ta'lim mazmuni va tashkil etish muddati bir xil bo'lmasa-da, lekin bu

davrda bolalarning nutqiy tayyorgarligini o'rganish uchun quyidagilarni aniqlash tavsiya etiladi:

1. O'qish ko'nikmasini aniqlash. a) so'zni sidiq'a o'qiydi; b) bo'g'inlab o'qiydi; d) harflab o'qiydi (noto'g'ri o'qish); e) anchagina harflarni biladi, lekin o'qishni bilmaydi; f) ayrim harflarni taniydi.

2. Yozuv ko'nikmasi. a) hamma harfni yozishni biladi, so'z yozadi (bosma yoki yozma); b) ayrim harflarnigina yozishni biladi (bosma yoki yozma); d) yozishni umuman bilmaydi.

3. Tovushni tahlil qilishga tayyorgarligi. a) so'zni bo'g'inlarga bo'ladi; b) so'z yoki bo'g'indagi tovushni ajratadi; d) hamma tovushni to'g'ri talaffuz qiladi; e) ayrim tovushlarni noto'g'ri talaffuz qiladi (qaysi tovushlar ekani hisobga olinadi); f) nutqining baland yoki pastligi, diksiyasiga e'tibor qaratiladi.

4. Og'zaki bog'lanishli nutqi. She'rni yoddan o'qish. a) 3 ta yoki undan ortiq she'rni biladi, uni zavqlanib aytadi; b) 1—2 ta she'rni biladi, aytishga uyaladi; d) birorta she'rni yoddan o'qishni bilmaydi.

5. Og'zaki bog'lanishli nutqi. Ertak aytish. a) bir yoki bir nechta ertakni biladi va aytib bera oladi; b) ertakni biladi va uni aytishga harakat qiladi, lekin ayta olmaydi; d) ertak aytishni bilmaydi, o'rganishga ham harakat qilmaydi.

6. Og'zaki bog'lanishli nutqi. Fikr bayon qilish ("Rasmda nimalar ko'rayotganingni aytib ber").

a) 20 so'zdan ortiq bog'lanishli hikoya, bir necha gap tuza oladi;

b) 10 tadan 20 tagacha so'z, bir necha gap tuza oladi;

d) 10 tagacha so'z bilan bog'lanishli nutq tarzida javob qaytara oladi;

e) 3-4 so'z bilan qisqa javob bera oladi.

O'zlashtirishning mezonlari–bilimlarni to'g'ri ko'paytirish; o'zlashtirishning zarur kuchi bilimlarni takror takrorlash orqali ta'minlanadi. Masalan: 1.6-mashq. Sinfda lug'at daftariga yozgan so'zlaringizni ma'nolari bilan yod oling. [16.223]. Shu ma'noda savol va topshiriqlar ham yodlash, takroran aytib berishga ixtisoslashib qoladi. Muammoli ta'lim texnologiyasi esa ijrochilikdan ijodiy faoliyatga o'tishni ta'minlaydi. Bugun Yangi O'zbekistonga ijrochi emas, ijodiy tafakkur sohiblari kerak. Muammoli ta'limning ma'lum bir bosqichida talabalar hali muammolarni o'zlari hal qila olmaydilar va shuning uchun o'qituvchi muammoni tadqiq qilish, uning yechimini boshidan oxirigacha belgilash yo'lini ko'rsatadi. Bu usuldagi talabalar esa ishtirokchilar emas, balki kuzatuvchi bo'lsa-da, bilib olish qiyinchiliklarini hal qilishni o'rganadilar. Ona tili ta'lim mazmunida qisman izlanuvchanlik ta'lim metodidan ham foydalaniladi, uning mohiyati

quyidagi xususiyatlarda ifodalanadi: – bilim talabalarga “tayyor” shaklda taklif etilmaydi, ularni mustaqil ravishda chiqarish kerak; – o‘qituvchi bilimlarni xabar yoki taqdim etishni tashkil etmaydi, balki turli vositalar orqali yangi bilimlarni izlanadi; – o‘qituvchi rahbarligida talabalar mustaqil mulohaza yuritadilar, paydo bo‘lgan bilish muammolarini hal qiladilar, muammoli vaziyatlarni yaratadilar va hal qiladilar, tahlil qiladilar, xulosa chiqaradilar va natijada ongli mustahkam bilim hosil qiladilar. O‘quv topshiriqlari oliy ta‘lim darslik va qo‘llanmalarining ham asosiy qismini tashkil etishi kerak. Oliy ta‘limda mustaqil ta‘lim va o‘quv topshiriqlarini tuzish va ulardan foydalanish bo‘yicha alohida fanlar tashkil etilishi lozim. Mavjud mustaqil ta‘lim va o‘quv predmetlarning mavzu va yo‘nalishidan kelib chiqib, oliy ta‘limdagi mustaqil ta‘lim va o‘quv topshiriqlarni mazmun jihatidan 3 ga ajaratish mumkin:

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tili fani bo‘yicha tuziladigan mustaqil ta‘lim va o‘quv topshiriqlari.
2. O‘zbek tili fani bo‘yicha mustaqil ta‘lim va o‘quv topshiriqlari.
3. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi fani bo‘yicha tuziladigan mustaqil ta‘lim

1. Mustaqil ta‘lim va o‘quv topshiriqlari orqali ona tilni o‘qitishga innovatsion yondashuvlarni joriy etishga doir ishlarni faollashtirish; ona til o‘qitish uchun ilmiy, metodik, psixologik va pedagogik yordam tizimini rivojlantirish ishlarni takomillashtirish; ona tili ta‘limida o‘zbek etnolingvistikaning so‘nggi yutuqlaridan foydalanish.

XULOSA

Xulosa o‘rnida, oliy ta‘limda joriy etilayotgan yangi modul tizimining asosiy qismi ham baholash va mustaqil ishlashga yo‘naltiruvchi mustaqil ta‘lim va o‘quv topshiriqlaridir. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, ona tili ta‘lim mazmuni hayotiy muammolarni qanday hal qilishni o‘rgatishi kerak. Ona tili ta‘limida har bir yaratilgan darslik orqali beriladigan savol, topshiriq va mashqlar ham mustaqil ta‘lim ham talabaga yaqindan yordam berishi lozim. Oliy ta‘lim tizimida o‘zbek tili, ona tili o‘qitishda, xususan, mustaqil ta‘lim va o‘quv topshiriqlarni tuzishda pragmatik yondashuvlardan foydalanish samaralidir. Mustaqil ishni tashkil etishda juda jiddiy muammo talabalarning mustaqil o‘qish qobiliyatini shakllantirish – ijodiy mustaqillikni rivojlantirishgacha bilimlarni o‘zlashtirishning yengil usullarini ishlab chiqishdir. Talabalarni o‘quv va ilmiy ishlarini tashkil etish samaradorligi, aqliy faoliyatning turli jihatlarini, ilmiy ijod, ovqatlanish va dam olish

to‘g‘risida bilimlar bilan jihozlash, ularni mustaqil o‘qish uchun ajratilgan vaqtdan oqilona foydalanishga o‘rgatish kerak.

QO‘LLANILGAN MANBALAR RO‘YXATI

- [1].Axmedova M.E. Pedagogika nazariyasi va tarixi (O‘quv qo‘llanma) – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2011.
- [2].Axmedova M.E. G.Niyozov. Pedagogika nazariyasi va tarixidan seminar mashg‘ulotlar (O‘quv qo‘llanma) – T.: Noshir, 2011.
- [3].Axmedova M.E. Modul-kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari (*tilshunoslik fanlari misolida*). Monografiya. “Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi”, MCHJ. Toshkent - 2022. 173 bet.
- [4].Axmedova M.E. Pedagogika. Darslik. “Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi”, MCHJ. Toshkent - 2022. 223 bet.
- [5]. Axmedova M.E. Meliboyeva R.N. Bekmirov T.R.Nurmatov A.N.Kasbiy pedagogika. Darslik. “Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi”, MCHJ. Toshkent - 2022. 250 bet.
- [6] Axmedova M.E. Mustaqil topshiriqlar bilan ishlash va ularni baholash metodikasi (modul-kredit tizimida tilshunoslik fanlari misolida). // *Metodik qo‘llanma*, Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi”, MCHJ. Toshkent - 2022. 121 bet.
- [7].Axmedova M.E. Rasulova G.K. Kredit-modul tizimida o‘zbek tili ta‘limda mustaqil o‘quv topshiriqlari tuzish va ulardan foydalanish metodikasi. *Uslubiy ko‘rsatma*, “Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi”, MCHJ. Toshkent – 2022. 83 bet.
- [8].Axmedova M.E. ARM faoliyatida tilshunoslik fanlaridan mustaqil topshiriqlar tuzishda modul-kredit tizimining joriy etilishi // O‘zMU XABARLARI. - Toshkent, 2022. - №1/2/1. – B. 95-97. ISSN 2181-7324. <https://science.nuu.uz/> (13.00.00; №15).
- [9].Axmedova M.E. Oliy filologik ta‘limda o‘quv topshiriqlaridan foydalanishning lingvometodik va didaktik xususiyatlari // Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi. Ilmiy jurnal. - Urganch, 2022. - №2 (86). – B. 470-472. 2016.29.12/4
- [10]. Axmedova M.E. OTM filologik ta‘limda o‘quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-didaktik va pragmatik xususiyatlari // Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi. Ilmiy jurnal. - Urganch, 2022. - № 4-1 (88). – B. 291-295. 2016.29.12/4
- [11]. .Azizxo‘jaeva N.N.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.:2006.
- [12].Farberman B. Ilor pedagogik texnologiyalar - T., 20015. Ishmuxammedov R.,Abduqodirov A.,

- [13]. Pardaev A.” Ta’limda innovatsion texnologiya (ta’lim muassasalari pedagog-o’qituvchilari uchun) amaliy tavsiyalar”.Tashkent.”Iste’dod” nashriyoti, 2008 y.
- [14]. .Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O’quv-metodik qo’llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
- [15]. Dadajonova N o’zbek tili ta’limi jarayonida oliy o’quv yurtlarining nofilologik ixtisosliklarida o’qiydigan talabalarning nutqi ustida ishlash metodikasi: ped.fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.–T., 1996. –123 b.
- [16].Ne’matov H. O’zbek tili tarixiy fonetikasi. –T.: O’qituvchi, 1992 – 92 b.
- [17].Ne’matov H., G’ulomov A.,Ziyodova T. Talabalar so’z boyligini oshirish. O’qituvchilar uchun
- [18].Jamolxonov H. Hozirgi o’zbek adabiy tili darslik. –T., 2014. 96-b.
- [19]. .Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o’zbek adabiy tili Oliy o’quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik qayta ishlangan, to’ldirilgan uchinchi nashr. – T., 1992. 400 b.
- [20]. .Sayfullaeva R.R., Mengliyev B.R., Raupova L.R. Hozirgi ozbek tili.Darslik – T.: Innovatsion -Ziyo. 2020. 188-b.
- [21]. .G’ulomov A.,Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Allavutdinova N.,Karimjonova V. Ona tili o’qitish metodikasi (Universitet va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti talabalari uchun) Darslik. T.:T.Fan va texnologiya 2012. – 380 b.